

HUQUQ TIZIMI: TUZILISHI, TAMOYILLARI VA  
ZAMONAVIY AHAMIYATI

*Nuraliyev Kamoliddin Nurislomovich*

*Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada huquq tizimi tushunchasi, uning tarkibiy tuzilishi, asosiy tamoyillari hamda jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy globallashuv sharoitida huquq tizimining rivojlanish tendensiyalari va milliy huquq tizimining takomillashuv yoʻnalishlari yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** huquq tizimi, huquq sohasi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy institut, huquqiy tartibga solish, qonunchilik.

**Аннотация:** В данной статье анализируется концепция правовой системы, ее структурное устройство, основные принципы и роль в развитии общества. Также освещаются тенденции развития правовой системы и направления совершенствования национальной правовой системы в контексте современной глобализации.

**Ключевые слова:** правовая система, правовая сфера, нормативно-правовые акты, правовое учреждение, правовое регулирование, законодательство.

**Annotation:** This article analyzes the concept of the legal system, its structural structure, basic principles, and role in societal development. It also highlights trends in the development of the legal system and areas for improving the national legal system in the context of modern globalization.

**Keywords:** legal system, legal sphere, normative legal acts, legal structure, legal regulation, legislation

**Kirish.** Oʻzbekistonda mustaqillik tufayli qaror topayotgan davlatchilik hamda huquqiy tizim davlat va huquq nazariyasining umumiy qonuniyatlari, nazariy andozalari, tamoyil va mezonlariga boʻysunadi. Boshqacha aytganda, yangi demokratik huquqiy davlatchilik, fuqarolik jamiyati va adolatli huquqiy tizim davlat va huquq nazariyasining ilmiy nuqtayi nazardan asoslantirilgan xulosa, tavsiya va bashoratlari asosida barpo etilishi mumkin va lozim. Ayni vaqtda taʼkidlash joizki, mamlakatimizda shakllanayotgan davlat, huquqiy va qonunchilik tizimlarining mohiyati, ijtimoiy vazifasi fanimiz doirasida keng mushohadaga, nazariy tahlilga muhtojdir. Huquq tizimi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. U davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida barqarorlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Har bir davlat oʻzining tarixiy, madaniy va siyosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, oʻziga xos huquq tizimini shakllantiradi.

Bugungi kunda bizga maʼlumki, huquq tizimi tushunchasi va huquq tizimi - bu

jamiyatda amal qiluvchi huquq normalarining ichki tuzilishi, o‘zaro bog‘liqligi va tartibga solingan yig‘indisidir. U huquqiy normalar, huquq institutlari va huquq sohalaridan tashkil topadi. Bizga ma’lumki huquq tizimi quyidagi elementlardan iborat:

• **Huquq normalari** — ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi umummajburiy qoidalar;

• **Huquq institutlari** — muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmui;

• **Huquq sohalari** — o‘ziga xos predmet va uslubga ega bo‘lgan yirik huquqiy tuzilmalar (masalan, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, ma’muriy huquq).

Biz bu huquq normalarini bilish bilan bir qatorda huquq tizimining tuzilishi ya’ni huquq tizimi odatda ikki asosiy qismga bo‘linishi haqida tushunchaga ega bo‘lishimiz zarur, ular quyidagicha turlarga ajratiladi:

• **Moddiy huquq** — bevosita ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi (fuqarolik, jinoyat, mehnat huquqi);

• **Protsessual huquq** — moddiy huquq normalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi (jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual huquq).

Shuningdek, huquq tizimi ommaviy va xususiy huquqqa ajratiladi va ommaviy va xususiy huquq huquq tizimining ikki asosiy bo‘lagi bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi. Ommaviy huquq jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilsa, xususiy huquq shaxsiy manfaatlarini tartibga soladi. Zamonaviy huquq tizimida ushbu ikki yo‘nalish o‘zaro uyg‘unlashib, kompleks huquqiy tartibga solishni ta’minlaydi. Huquq tizimining asosiy tamoyillari va uning ahamiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qonun ustuvorligi ya’ni barcha subyektlar qonunga bo‘ysunishi shartligini hamda adolat, tenglik, inson huquqlarining ustuvorligi, huquqiy aniqlik tushunchalari kabi bo‘linishini ko‘rishimiz mumkin. Zamonaviy sharoitda huquq tizimining tamoyillari va zamonaviy ahamiyatini olib qarasaq, Globallashuv jarayonida huquq tizimi xalqaro huquq bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik kengaygani sari milliy huquq tizimlari ham xalqaro standartlarga moslashmoqda. Raqamli texnologiyalar rivoji esa yangi huquqiy sohalarni vujudga keltirmoqda masalan, xborot huquqi, kiberxavfsizlik huquqi hamda sun’iy intellekt bilan bog‘liq huquqiy normalaridir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, huquq tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Uning samarali ishlashi davlat boshqaruvi sifatini oshiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlaydi. Zamonaviy davrda huquq tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Axmadjon A. huquq manbalari //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2026. – т. 84. – №. 3. – с. 320-324.
2. Ikromjon o‘g T. I. et al. huquqning tushunchasi va mohiyati //научный импульс. – 2024. – т. 3. – №. 28. – с. 695-700.
3. Taxirovna J. M. “ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy ta’minot” tushunchalarini belgilashning normativ-huquqiy jihatlari //yangi o‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – т. 2. – №. 7. – с. 504-509.
4. Toshmurodov A. O. jamoat tartibi tushunchasi va uning nazariy huquqiy asoslari //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2026. – т. 85. – №. 2. – с. 13-20.
5. Ravshanovna R. M., Gulsanam A. Konstitutsiyaning ustuvorligi va O‘zbekistonda huquqiy davlat tamoyilining amalga oshirilishining muhim jihatlari //conference of advance science & emerging technologies. – 2025. – т. 1. – №. 2. – с. 72-76.